



**“DOLZARB 90 KUN” TASHABBUSI – YOSHLAR SALOHIYATINI
RIVOJLANTIRISH VA XAVFSIZLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING
SAMARALI MEXANIZMI**

Dadaxon Komiljoinovich Nasriddinov
O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan “Dolzarb 90 kun” tashabbusining mazmun-mohiyati, uning yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, intellektual va kasbiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va xavfsizlik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Ta'lim muassasalari, jumladan Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida ushbu tashabbusni amalga oshirishning zamonaviy yo'nalishlari hamda innovatsion yondashuvlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Dolzarb 90 kun, yoshlar siyosati, favqulodda vaziyatlar, xavfsizlik madaniyati, radiatsion xavfsizlik, innovatsion ta'lim, vatanparvarlik, simulyatsion ta'lim.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning bilim va salohiyatini rivojlantirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning ma'naviy, intellektual va jismoniy rivojlanishi mamlakatning barqaror taraqqiyoti, iqtisodiy raqobatbardoshligi hamda milliy xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biridir.

Yozgi ta'til davri yoshlar hayotida alohida o'rin tutadi. Mazkur davrni samarali tashkil etish nafaqat ularning dam olishini ta'minlaydi, balki yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, ijodiy salohiyatini namoyon etish, sport bilan shug'ullanish hamda kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu maqsadda mamlakatimizda “Dolzarb 90 kun” tashabbusi amalga oshirilmoqda.

Mazkur tashabbus davlat organlari, ta'lim muassasalari, mahallalar, nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilikni birlashtirgan holda yoshlarning yozgi ta'tilini mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks dastur hisoblanadi. Dastur doirasida sport, madaniyat, fan, axborot texnologiyalari, kitobxonlik, kasb-hunar va harbiy-vatanparvarlik yo'nalishlarida minglab tadbirlar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

“Dolzarb 90 kun” tashabbusining asosiy maqsadi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali ularning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashishdan iborat.

Ushbu tashabbus yoshlarni ilm-fan va innovatsion faoliyatga keng jalb etish,

zamonaviy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlarning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, huquqbuzarlik va turli salbiy illatlarning oldini olish hamda raqamli texnologiyalarni o'rganishga keng imkoniyat yaratish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Bugungi kunda sun'iy intellekt, robototexnika, kibermakon xavfsizligi va raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan bir paytda yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashi davlatning innovatsion taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish ularning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning turli salbiy oqimlarga qo'shilib ketishining asosiy sabablaridan biri ularning bo'sh vaqtini nazoratsiz va maqsadsiz o'tkazishidir.

“Dolzarb 90 kun” tashabbusi aynan mana shu muammoning yechimiga qaratilgan bo'lib, yoshlarni foydali mashg'ulotlarga jalb etish orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur tashabbus doirasida sport musobaqalari, fan olimpiadalari, kitobxonlik tanlovlari, IT kurslari, xorijiy tillarni o'rganish, kasb-hunar mashg'ulotlari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, volontyorlik loyihalari hamda keng yo'lga qo'yilmoqda.

Natijada yoshlarning ijtimoiy faolligi oshib, ularning liderlik qobiliyatlari rivojlanadi.

Bugungi kunda tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning soni ortib borayotganligi aholining, ayniqsa yoshlarning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan “Dolzarb 90 kun” dasturi favqulodda vaziyatlar madaniyatini shakllantirish uchun ham katta imkoniyat yaratadi.

Yoshlar o'rtasida zilzila vaqtida harakat qilish qoidalari, yong'in sodir bo'lganda evakuatsiya, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, radiatsion va kimyoviy xavflarda himoyalaniş, biologik xavfsizlik, suvda xavfsizlik, gaz sizib chiqishida harakatlar algoritmi, o'rmon va dala yong'inlari xavfsizligi kabi yo'nalishlarda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur mashg'ulotlar yoshlarda tezkor qaror qabul qilish, xavfni baholash va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, “Dolzarb 90 kun” tashabbusi yoshlar siyosatini amalga oshirishning zamonaviy va samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Mazkur loyiha yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning intellektual, jismoniy va ma'naviy salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu tashabbus favqulodda vaziyatlar sohasida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, radiatsion, kimyoviy va biologik xavflardan himoyalaniş bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Kelgusida “Dolzarb 90 kun” dasturi doirasida sun'iy intellekt, virtual reallik, simulyatsion texnologiyalar va zamonaviy laboratoriya mashg'ulotlarini keng joriy etish yoshlarning kasbiy tayyorgarligini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv mamlakatimizda bilimli, tashabbuskor, vatanparvar va favqulodda vaziyatlarga har tomonlama tayyor bo'lgan yosh avlodni shakllantirishning muhim omillaridan biri bo'lib qoladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda yozgi ta'til davrida "Dolzarb 90 kun" dasturini amalga oshirish bo'yicha qarorlari va topshiriqlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yoshlar siyosatini amalga oshirish va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qarorlari. – Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi. Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi. Radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar. – Toshkent, 2025.

